

Oliy ta'lim tizimida multikultural ta'limning rivojlanishida pedagogik mahoratning o'rni

Saffarova Mohidil Axmadovna

Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti katta o'qituvchisi.

Anotatsiya: *O'tgan bir necha yillar mobaynida ta'lim tizimida multikultural ta'limning rivojlanishiga pedagogik mahoratning o'rni o'zgacha bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida multikultural ta'limning rivojlanish jarayoni va unda pedagogik mahoratning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Globallashuv va jamiyatning madaniy xilma-xilligi sharoitida turli millat, til va madaniyat vakillarini yagona ta'lim makonida birlashtirishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, madaniy sezgirligi va kommunikativ yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mahorat orqali talabalarda o'zaro hurmat, bag'rikenglik, inklyuziv qarashlar va tolerantlik g'oyalari shakllantiriladi. Tadqiqotda multikultural ta'limning mazmuni, asosiy tamoyillari va uni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan pedagogik yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning madaniyatlararo muloqot olib borish malakasi, didaktik uslublarni moslashuvchan qo'llay olishi kabi omillarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Multikultural ta'lim, oliy ta'lim, pedagogik mahorat, madaniyatlararo muloqot, bag'rikenglik, kommunikativ kompetensiya, inklyuziv yondashuv, tolerantlik.*

Bugungi globallashuv jarayonida dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bu holat ta'lim tizimida, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida multikultural muhitning shakllanishiga olib kelmoqda. Turli millat, til, e'tiqod va madaniyat vakillarining bir joyda birgalikda ta'lim olishi, ular o'rtasida madaniyatlararo muloqot, o'zaro hurmat, bag'rikenglik va inklyuziv qarashlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shunday murakkab, lekin muhim jarayonda pedagogik mahoratning roli nihoyatda beqiyos hisoblanadi.

Pedagogik mahorat – bu nafaqat o'quv mazmunini yetkazish, balki turli madaniy qatlamlardan kelgan talabalarning psixologik holatini inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil eta olish, har bir shaxsni qadrlash, ular o'rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi murakkab kasbiy salohiyatdir. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fanining bilimdoni, balki madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'ya oladigan kommunikativ va madaniy sezgirlikka ega shaxs bo'lishi lozim. Oliy ta'lim tizimida

multikultural ta'limni rivojlantirish, aslida, pedagogik yondashuvlarning yangilanishi, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda oshirib borish, tolerantlik tamoyillariga asoslangan interaktiv o'quv muhitini yaratishni talab qiladi. Mazkur maqolada aynan shu omillar atroflicha tahlil qilinib, multikultural ta'limni samarali tashkil etishda pedagogik mahoratning hal qiluvchi o'rni ochib beriladi. Zamonaviy global ta'lim makonida madaniy xilma-xillik va ijtimoiy diversifikatsiya sharoitida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida turli milliy, diniy, til va madaniy fondan kelgan talabalarning birgalikda ta'lim olishi multikultural yondashuvni talab qiladi. Bunday vaziyatda o'qituvchining pedagogik mahorati nafaqat o'quv dasturini puxta o'zlashtirish, balki talabalarning madaniy xususiyatlarini inobatga olib, har biriga individual yondasha olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Multikultural ta'lim – bu insonlarda bag'rikenglik, madaniyatlararo hamjihatlik, empatiya, kommunikativ muvosiqlik kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv tizimidir. Mazkur yondashuv orqali talabalar nafaqat akademik bilimlarni egallaydi, balki turli madaniyatlarga ochiq bo'lish, ularni tushunish va hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Oliy ta'lim tizimida multikultural ta'limni samarali yo'lga qo'yish uchun o'qituvchilar quyidagi kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarga ega bo'lishlari zarur:

1. Madaniyatlararo sezgirlik – Talabalarning milliy, diniy va madaniy qadriyatlarini hurmat qilish, ularni kamsitmaslik, darsda teng imkoniyat yaratish.
2. Kommunikativ mahorat – Turli madaniyat vakillari bilan ijobiy muloqot qurish, fikrlar xilma-xilligini to'g'ri boshqarish.
3. Psixopedagogik yondashuv – Har bir talabaga individual tarzda yondashish, uning ehtiyojlari, qiziqishlari va o'ziga xos jihatlarini hisobga olish.
4. Reflektiv fikrlash – O'z faoliyatini tanqidiy baholay olish, o'zini rivojlantirishga intilish, tajriba almashish va yangi metodikalarni tatbiq qilish.

Multikultural muhitda faoliyat yuritayotgan pedagoglar ta'lim jarayonida inklyuziv metodlar, interaktiv texnologiyalar, muammoli ta'lim, jamoaviy loyiha faoliyati kabi zamonaviy ta'lim shakllarini keng qo'llashlari zarur. Bu nafaqat darsni qiziqarli va mazmunli qiladi, balki talabalar o'rtasidagi o'zaro anglashuv va hamkorlikni mustahkamlaydi. Ayniqsa, rol o'yinlari, madaniy almashinuv loyihalari, forumlar va ijodiy muhokamalar orqali talabalarda turfa madaniy pozitsiyalarga nisbatan ijobiy qarashlar shakllanadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, xorijiy tajribalarni o'rganishi, madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan

malaka oshirish kurslarida qatnashishi juda muhimdir. Zero, zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki madaniyatlararo vositachi, ta'limda inklyuzivlikni ta'minlovchi shaxs, ijtimoiy integratsiyani qo'llab-quvvatlovchi kuch sifatida faoliyat yuritadi. Demak, oliy ta'lim tizimida multikultural ta'limni samarali tashkil etish bevosita o'qituvchining pedagogik salohiyati, uning madaniy sezgirligi va ijtimoiy mas'uliyatiga chambarchas bog'liqdir. Mazkur yondashuv orqali ta'lim nafaqat bilim berish vositasi, balki insoniy qadriyatlarni mustahkamlovchi kuchli tarbiyaviy maydonga aylanadi. Zamonaviy global ta'lim tizimi doirasida multikultural ta'lim nafaqat talabalar o'rtasida madaniyatlararo anglashuvni shakllantirish, balki jamiyatda tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham qaratilgan muhim omilga aylangan. Oliy ta'lim muassasalarida turli millat va madaniyat vakillari birgalikda o'qishlari, o'zaro munosabatlarining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchining pedagogik mahorati muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'qituvchining madaniyatlararo sezgirligi va inklyuziv pedagogikani qo'llash qobiliyati katta rol o'ynaydi. Pedagogning vazifasi nafaqat darslik materiallarini yetkazish, balki talabalarga turli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tushunish va qabul qilishni o'rgatishdir. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda do'stlik, tenglik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. "Multikultural ta'lim nafaqat turli madaniyatlarni o'rganish, balki ular o'rtasidagi farqlarni tushunish va qabul qilish orqali insonlar o'rtasida tinchlik va o'zaro hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi." — UNESCO

Multikultural ta'limni rivojlantirishda pedagogik mahoratning o'rni beqiyosdir. O'qituvchining madaniyatlararo sezgirligi, inklyuziv pedagogika va tenglikni ta'minlash qobiliyati talabalar o'rtasidagi ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi. O'qituvchi har bir talabaga shaxs sifatida yondashib, turli madaniyatlarni hurmat qilishga o'rgatishi zarur. Shunday qilib, pedagogik mahoratning rivojlanishi nafaqat ta'lim jarayonining sifatini, balki jamiyatning barqaror va tinch rivojlanishini ham ta'minlaydi. Jamiyat tomonidan shakllantirilgan va ijtimoiy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xulq-atvor andozalari hamda hayot tarzi me'yorlari tizimi mavjud bo'lib, u madaniyatlarga qarab farqlanadi va vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi.

Ta'lim tizimi jamiyatning asosiy ustunidir. O'quvchilarning bilim olish jarayoni, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari hamda ijtimoiy hayotdagi o'rni uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta'limda gender va milliy xilma-xillikni e'tiborga olish, ta'lim jarayonini samarali va qamrovli qilish uchun zaruriy omillardan biri hisoblanadi. Ta'limdagi bunday xilma-xillik o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, jamiyatda tenglik va adolatni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida gender farqlari va o'ziga xos jihatlarni hisobga olish tabiiy pedagogik hodisa sifatida tan olinmoqda. Ammo didaktika sohasida bu

holatning ilmiy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. O'quv jarayonida gender farqlarini inobatga olmasdan ta'lim samaradorligini ta'minlash mushkul ekanligi mutaxassislar tomonidan tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Xususan, psixologlar bu borada sezilarli natijalarga erishmoqdalar. Ayollarning ilmiy faoliyatga keng jalb qilinishi, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturlar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash — zamonaviy ta'lim sohasining muhim vazifalaridandir. Shu sababli, ta'lim, ilm-fan, sport va sog'liqni saqlash tizimlarida ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha gender tenglikni amalga oshirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.«Gender tenglikka erishish strategiyasi» uzoq muddatli rejalarga asoslangan bo'lib, bir qator ustuvor yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy soha, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, shuningdek, saylov huquqlarini amalga oshirishda erkaklar va ayollar uchun teng shart-sharoitlar yaratish bu strategiyaning muhim qismlaridandir.

Bilim va ta'lim – najot manbai.Ushbu holatlarning ildizi ko'pincha savodsizlik va yetarli ta'lim olmaslikka borib taqaladi. Shu nuqtai nazardan, gender sezgirlik hozirgi ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu shaxsning gender stereotiplari yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan turli hayotiy, kasbiy va ijtimoiy vaziyatlarni hal qilishga tayyorligiga asoslangan nazariy va amaliy bilimlar majmuasidir. Shu jihatlar “Multikultural ta'limni rivojlantirishda pedagogik mahoratning o'rni” mavzusiga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lib, ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borish uchun mustahkam asos bo'la oladi. Oliy ta'lim tizimida multikultural ta'limni rivojlantirish pedagogik mahoratni zarur qiladi, chunki talabalarining turli madaniyatlardan kelib chiqishi ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishini talab etadi. Pedagogik mahorat faqat akademik bilimlarni o'qitish bilan cheklanmaydi, balki talabalarining madaniy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning o'zaro anglashuvini, hurmatini va murosali muloqotini rivojlantirishga qaratilgan. Bunday yondashuv o'qituvchidan yuqori darajadagi kommunikativ, madaniyatlararo sezgirlik, tenglikni ta'minlash va inklyuziv metodlarni qo'llashni talab etadi. Multikultural ta'lim, shuningdek, o'qituvchilarning o'z malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni o'rganish va yangi pedagogik metodlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Bunday jarayonlar orqali talabalar nafaqat bilimlarni egallashadi, balki jamiyatda bir-birini hurmat qilish, tinchlikni ta'minlash va barqarorlikni saqlashga o'rgatishadi.

Multikultural ta'limning muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy barqarorligini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pedagoglarning madaniy sezgirligi va inkluziv yondashuvi orqali har bir talaba o'zini qadrlangan va teng huquqli his qiladi. Shu sababli, oliy ta'limda multikultural ta'limni rivojlantirish uchun pedagogik mahoratni doimiy ravishda oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. (2006). Intercultural Dialogue and Global Citizenship: An Education Perspective. Paris: UNESCO Publishing.
2. Banks, J. A. (2004). Multicultural Education: Issues and Perspectives. John Wiley & Sons.
3. Gay, G. (2010). Culturally Responsive Teaching: Theory, Research, and Practice. Teachers College Press.
4. Kymlicka, W. (2015). Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights. Oxford University Press.
5. Sen, A. (2006). Identity and Violence: The Illusion of Destiny. W.W. Norton & Company.
6. Suleymanov, R. (2019). Pedagogik innovatsiyalar va madaniyatlararo ta'lim: nazariy va amaliy masalalar. Tashkent: Universitet nashriyoti.